

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



NTM-60411100-1.02
2024 yil "30" avgust

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI

O'QUV DASTURI

(Kunduzgi ta'lim shakli uchun)

Bilim sohasi:	400 000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000	Biznes va boshqarish
Ta'lim yo'nalishi:	60411100	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar

TERMIZ - 2024

Fan/modul kodi ITT1105	O'quv yili 2024-2025	Semestr I	ECTS-kreditlar (4)
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Xafladagi dars soatlari (4)
Fanning nomi	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1 IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI	60	60	120
2	<p>I. Fanning mazmuni – Insoniyat o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida katta iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar (olim yoki hokimlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g'oya, nazariya, konsepsiyalar ilgari surilgan va amalga oshirilganki, bir holda shular tufayli davlat va xalqlar ravnaq topgan, ba'zida tushkunlikka uchragan. Ana shu iqtisodiy g'oyalarni har tomonlama chuqur o'rganish, tahlil etish, ular orasidan umumbashariy ahamiyatlarini ajratib olib, hozirgi davrga, ya'ni hayotga tadbiq etish nihoyatda ham amaliy, ham nazariy foydalidir, chunki ularda ko'p yillik tajriba mujassamlashtirilgan bo'ladi.</p> <p>Fanning maqsadi – talabalarga Antik davrdan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan iqtisodiy fikrning rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot berish. Iqtisodchilar har doim duch kelgan va hal qilishga uringan muammolar mohiyatiga alohida e'tibor berishlari kerak. Muammolarni hal qilishda iqtisodchilarning faoliyatidagi uzluksizlik va o'zgarishlarni tushunish iqtisodiyotni fan sifatida shakllanishi evolyutsiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</p> <p>1-Mavzu: Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va o'rganish usuli Iqtisodiyot fanlarini o'rganish, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning tub mohiyatini tushunish ko'p jihatdan nazariy bilimlari bilan birga tarixiy bilimlarga ham ega bo'lishini talab qiladi. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" iqtisodiy fanlar tizimida o'z tarixiy yondashuvi, o'rganish manbalari bilan alohida o'rinni egallaydi. U mustaqil fan sifatida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda, ularning iqtisodiy bilim, tafakkurini oshirishda katta rol o'ynab qolmay, balki boshqa iqtisodiy fanlarni o'rganishda tayanch tarixiy tahliliy vazifani bajaradi. Kishilik jamiyatining dastlabki davrlardan boshlab xo'jalik yuritish to'g'risida u yoki bu ko'rinishdagi iqtisodiy fikrlar amal qilib kelgan.</p> <p>2-Mavzu: Qadimgi dunyo iqtisodiy ta'limotlari Kishilik jamiyatining dastlabki davrlardan boshlab xo'jalik yuritish to'g'risida u yoki bu ko'rinishdagi iqtisodiy fikrlar amal qilib kelgan. Lekin o'sha paytdagi iqtisodiy fikrlar to'g'risidagi ma'lumotlar bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Chunki ulami avlodlardan avlodlarga, asrlardan asrlarga olib o'tuvchi vosita - yozuv bo'lmagan. Yozuv qachon paydo bo'lgan? Yozuv bundan olti ming yil avval, miloddan to'rt ming yil oldin, o'sha davrning madaniyat o'chog'i hisoblangan Mesopotamiyada ijod qilindi</p>		

3-Mavzu: Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar

0ʻrta asr davriga (feodalizm) kelib iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ancha toʻgʻri aks ettirgan iqtisodiy gʻoya va nazariyalar shakllandi va rivojlandi. Ular oʻsha davr ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda oʻziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday xususiyatlardan biri eng avvalo, iqtisodiy gʻoya va nazariyalarda diniy qarashlarning ustunligidir. Oʻsha davrda xoʻjalik hayotidagi diniy-axloqiy meʼyorlar, ularning bozor iqtisodiy munosabatlari va ijtimoiy tizimda demokratik tamoyillarning oʻrnatilishiga toʻsqinlik qilishi yangi iqtisodiy gʻoya, nazariyalarning din "pardasiga oʻrab" berilishiga sabab boʻlgan.

4-Mavzu: Oʻrta Osiyodagi temuriylar davrigacha boʻlgan iqtisodiy gʻoyalar

Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlarini bogʻlovchi qadimgi savdo yoʻli - Buyuk ipak yoʻlidir. Bu yoʻl orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli «Ipak yoʻli» nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yoʻl m.a. II asrdan to milodiy XV asrgacha, suv yoʻllari rivojlanguncha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda Oʻrta Yer dengizi mamlakatlari oʻrtasidagi savdo- sotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol oʻynagan.

5-Mavzu: Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy gʻoyalar va iqtisodiy siyosat

Amir Temur (1336-1405) iqtisodiyotni boshqarishda oʻziga xos maktab yaratdi. Sohibqiron davlatida devoni buzurg (bosh vazir)dan tashqari har bir viloyatda Devon, deyiluvchi boshqarma boʻlgan. U davlatning muhim ishlarini: soliq yigʻish, tartib saqlashni, Amir Temur (1336-1405) ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yoʻllar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilib turgan. Uning xodimlari vaqti-vaqti bilan tekshirish va taftish ishlarini olib borgan. Ayniqsa, toshu tarozi toʻgʻriligi, odil baho tekshirib turilgan, qallob va tovlamachilar qattiq jazolangan.

6-Mavzu: Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati

Merkantilizm davri har bir shaxs oʻz - oʻzi uchun iqtisodchi, degan aqida bilan xarakterlandi. Qarashlar, fikrlar xilma - xil boʻlganligi sababli 1500-1750-yillarda umumlashgan adabiyot yaratish qiyin kechdi. Bundan tashqari bir yozuvchi birgina mavzuga eʼtibor qaratgan boʻlib, hech bir yozuvchi bu tushunchalarni jamlab va sentezlab keyingi iqtisodiy gʻoyalarga turtki boʻla oladigan fikrlarni yarata olmadi. Merkantilizm atamasi 1500-1750-yillar oraligʻida yaratilgan iqtisodiy adabiyotlar va amaliy takliflarga nisbatan ishlatiladi. Merkantilistlar adabiyoti Gʻarbiy Yevropaning barcha rivojlanayotgan iqtisodiyotlarida yaratilgan boʻlsa ham, uning asosiy gʻoyalari Ingliz va Fransuzlar tomonidan ishlab chiqilgan.

7-Mavzu: Angliya va Fransiya klassik (mumtoz) maktabining shakllanishi
Merkantilizmning yemirilishi va klassik siyosiy iqtisod maktabining paydo boʻlishi (Angliyada) XVII asrga toʻgʻri keladi. XVI asrning oʻrtalarida

boshlangan manufaktura davri XVII asrga kelib sanoatning ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi. Ayni paytda qishloq xo'jaligida ham kapitalizm rivojlanishiga boshlandi. Buyuk Britaniya dunyoda iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatga aylandi. XVIII asrga kelib bu yerda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari faqat savdoda emas, balki sanoat va qishloq xo'jaligida ham g'alaba qozondi. Bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yo'l ochib berdi.

8-Mavzu: Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari

Buyuk ingliz iqtisodchisi Adam Smitning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asari zamonaviy iqtisod fanining boshlanishi hisoblanadi. A.Smit o'z davridagi iqtisodiy bilim va konsepsiyalarini umumlashtirdi va tizimlashtirdi. U xo'jalik hayotining asosiy sohalarini tavsiflab beruvchi bir butun nazariya yaratdi.

9-Mavzu: Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati

Marksistik iqtisodiy fanda «marksist» bo'lmagan mualliflarni sharmanda qilish «an'anasi» mavjud edi. Ehtimol, eng ashaddiy va qattiq tanqidga uchragan g'oya bu ingliz olimi Tomas Robert Maltus g'oyalari bo'lsa kerak. Uni nimalar deb atashmadi: kapitalizm himoyachisi (apologeti), odamlarning dushmani, fashizm ideologi. Eng qiziqarli joyi shundaki, T.Maltus nafaqat turli toifadagi sotsialistlarning, balki ularning asosiy muxoliflari bo'lgan erkin bozor va xususiy tadbirkorlikning mutlaq ustunliklariga ishongan liberallarning ham g'azabini qo'zg'atgan. Nega T.Maltusni shunchalik yomon ko'rishgan? Pessimizmi uchun, aholi farovonligini ancha oshirish mumkinligiga ishonmaganligi uchun. Axir sotsialistlar ham, liberallar ham «baxtli kelajakka» ishonishgan.

10-Mavzu: Bozor iqtisodiyotiga muxolif-sotsialistik yo'nalish mohiyati va uning tarixiy taqdiri


A.K.Sen-Simon Anri Klod de Rebrua Sen-Simon (1760-1825-yy.) Fransiya xayoliy sotsializmining namoyandasi bo'lib, 1789-1794-yillardagi fransuz inqilobi bilan zamondosh edi. U aristokratlar oilasidan bo'lib, Sanoat sistemasi haqida, «Inson haqidagi fan ocherklari», «Sanoat yoki siyosiy, ma'naviy va falsafiy mulohazalar», «Yangi xristianlik» va boshqa shu kabi mashhur asarlar muallifi hisoblanadi. Sen-Simon maxsus iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirmadi, balki asosiy e'tiborni ijtimoiy muammolarga qaratdi.

11-Mavzu: Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar

XIX asrning 70-yillariga kelib klassik siyosiy iqtisod o'rniga iqtisodiy fanda yangi subyektiv yo'nalish vujudga keldi va iqtisodiy fan taraqqiyotida katta o'zgarish yuz berdi. O'sha davrda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga yangicha subyektiv yondashuvga asos solgan (bir-biridan mustaqil holda) uch iqtisodchining asarlari birdaniga vujudga keldi.

12-Mavzu: Institutionalizm yo'nalishining mohiyati va ahamiyati

Iqtisodiy ta'limotlardagi institutsionalizm yo'nalishi AQSHda XX asrning 20-30-yillarida keng tarqaldi, ammo u ancha oldin, XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan (T.Veblenning 1899-y. chiqqan «Bekorchi sinflar nazariyasi» asari

6	<p>vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.</p>
7	<p>VII. ADABIYOTLAR Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Hunt E.K. and Mark Lautzenheiser. History of Economic thought. Copyright by M. E. Sharpe, Inc. 2011 Jurgen Georg Backhaus. Handbook of the History of Economic thought. Insights on the Fouders of Modem Economies. Springer Science+ Business Media, LLC. 2012 Tashmatov Sh. X., Xasanxonova N. I. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISODIYOT DUNYO SI", 2021. - 470 b. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. (lotin yozuvida). - T.: "Iqtisod va moliya", 2007. - 320 Tashmatov Sh., Asatullaev X., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. - T.: "Iqtisod va moliya", 2019. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustivor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. I. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruza matni. (lotin yozuvida). - T. TDIU 2007. - 256 Razzoqov A. O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari. O'quv qo'llanma. T. TDIU 2009. - 270 Razzoqov A. Nobel mukofoti laureantlari (iqtisodchilar). T., 2009 Tashmatov Sh., Xasanxonova R. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. T., Iqtisod - moliya. 2019. <p>Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> www.gov.uz. www.ziyounet.uz. www.uza.uz www.lex.uz
8	<p>Fan/dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan namuna asosida ishlab chiqilgan va Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashining 2024 yil "30" avgustdagi 1/3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
9	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: I. Ch. Saporov, TISU, "Iqtisodiyot" kafedrasini o'qituvchilari </p> <p>Taqirizchilar: Xatamov O. Q. - Termiz davlat universiteti Kompyuter va dasturiy injenering kafedrasini mudiri, i.f.d., prof. Abdulxayeva G. M. - Termiz davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini mudiri, i.f.d., dotsent.</p>

bilan bog'liq). Bu yo'nalish nomi lotincha «instituto» - urf-odat, ko'rsatma, muassasa so'zidan olingan va kapitalizmning imperializm bosqichiga o'tishi bilan bog'liq ravishda ro'y berdi (sanoat va moliya monopoliyalari, korxonalarining yiriklashuvi va boshqalar), chunki bu davr rivojlanishini erkin raqobatga asoslangan avvalgi davr ta'limotlari bilan izohlash mumkin bo'lmay qoldi.

13-Mavzu: Neoliberalizm g'oyalari mohiyati va ahamiyati. Nomukammal raqobat bozori nazariyalari Jon Meynard Keyns talimoti va neokeynschilik

XX asrning 30-yillarida o'rtalariga kelib, keynshchilikning rivojlanishi bilan iqtisodiy nazariyada va amaliyotda liberal yo'nalish inqirozi namoyon bo'la boshladi. Uning natijasida: bir guruh iqtisodchilar o'zlarining qarashlaridan voz kechgan holda keynshchilikka qo'shilib ketdi va bu yangi ta'limotni ancha to'g'ri, deb hisobladi; ikkinchi guruh iqtisodchilar bozor munosabatlarida davlatning xarakteri, o'rni va roli to'g'risidagi o'z qarashlarini himoya qildi va ularni qayta o'zgartirgan holda neoliberalizm guruhini tashkil etdi.

14-Mavzu: Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari evolyutsiyasi

Iqtisodiyotda bir qancha o'latlar, xususan, ommaviy ishsizlik va inflyatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Aholining mo'tadil va to'la bandligini, real daromadlar o'sishini qanday qilib ta'minlash mumkin, degan savollar hammani, iqtisodiyot fani namoyondalarini ham qiziqitirib kelmoqda.

15-Mavzu: Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy g'oyalar

Hozirgacha biz asosan ayrim mamlakatlardagi milliy iqtisodiyot, iqtisodiy jarayonlar to'g'risida fikr yuritdik. Ammo iqtisodiyotga xos bo'lgan muhim bir xususiyat shuki, u chegara bilmaydi, baynalmilal xarakterga ega. Agar bu masalaga tarixan yondashilsa, iqtisodiyotning, xo'jaliklarning yaqinlashuv jarayoni ilgariidan ma'lum. Masalan, eramizdan avvalgi II asrdayoq Buyuk ipak yo'li bilan Xitoy, Yaponiya, Koreya mollari Hindiston, Eron, O'rta Osiyo orqali Vizantiya va Italiyaga olib kelingan, u yerdan sotib olingan mollar boshqa mamlakatlarga olib borilgan.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-Mavzu: Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va o'rganish usuli
- 2-Mavzu: Qadimgi dunyo iqtisodiy ta'limotlari
- 3-Mavzu: Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar
- 4-Mavzu: O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar
- 5-Mavzu: Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat
- 6-Mavzu: Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati

7-Mavzu: Angliya va Fransiya klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi	
8-Mavzu: Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari	
9-Mavzu: Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati	
10-Mavzu: Bozor iqtisodiyotiga muxolif-sotsialistik yo'nalish mohiyati va uning tarixiy taqdiri	
11-Mavzu: Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar	
12-Mavzu: Institutsonalizm yo'nalishining mohiyati va ahamiyati	
13-Mavzu: Neoliberalizm g'oyalarning mohiyati va ahamiyati. Nomukammal raqobat bozori nazariyalari Jon Meynard Keyns talimoti va neokeynschilik	
14-Mavzu: Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari evolyutsiyasi	
15-Mavzu: Jahon xo'jali to'g'risidagi iqtisodiy g'oyalar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular	
1. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar	
2. Qadimgi Hindistondagi iqtisodiy g'oyalar	
3. IX-XV asrlarda O'rta Osiyodagi iqtisodiy fikrlar. XIX asr o'rtalaridagi namoyndalar: Senior, Bastiya, Mak-Kullox va Kerilarning iqtisodiy qarashlari	
4. Ilk merkantilizm ta'limoti va uning namoyondalari	
5. A.Smit va hozirgi zamon. D.Rikardo ta'limotining ahamiyati	
6. Ota-o'g'il Jeyms va Jon Mill hamda T.R.Maltusning iqtisodiy g'oyalari. J.B.Seyning iqtisodiy nazariyalari.	
7. O'rta asr iqtisodiy talimoti	
8. Qur'oni Karim va Hadislardagi iqtisodiy qarashlar	
9. Monetarizm va neoliberalizm evolyutsiyasi. Nomukammal bozor ta'limotlari	
10. Jon Meynard Keynsning iqtisodiy ta'limoti va uning mohiyati. Keyns ta'limoti yuzaga kelishiga turki bo'lgan shart-sharoitlar.	
11. Avestodagi iqtisodiy qarashlar	
12. Hozirgi zamon iqtisodchilarining jahon iqtisodiyotiga oid g'oyalari.	
13. Temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar - Z.M.Bobur (1483-1530)	
14. Fiziokratlar maktabi - F. Kene	
15. V Petti (1623-1687) ning iqtisodiy g'oyalari.	
16. A. Smitning iqtisodiy g'oyalari	
17. D. Rikardoning (1772-1823) iqtisodiy ta'limoti.	
18. Fransiya klassik maktabi - F. Buagilber nazariyalari	
19. Sismondi, Prudon va Z. Rodbertus qarashlaridagi umumiylik, xususiylik.	
20. J.B.Seyning iqtisodiy nazariyalari.	
21. T.R.Maltusning iqtisodiy g'oyalari.	
22. Germaniyadagi tarixiy maktab.	
23. Markscha iqtisodiy g'oyalarning xususiyatlari	
24. Marjinalizm iqtisodiy yunalishi	
25. A.Marshalning talab va taklif nazariyalari.	
26. Amerika iqtisodiy maktabi	

27. Keynsning iqtisodiy ta'limoti.	
28. Ijtimoiy-institutsional yo'nalishlar (XX asr 50-60 y.).	
29. Xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risida g'oyalar	
30. O'zbekiston Respublikasida milliy bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish to'g'risidagi iqtisodiy kontsepsiyalar.	
31. Iqtisodiy tadqiqotda sotsialistik yo'nalish (XIX asr)	
32. Nisbiy ustumlik nazariyasi	
33. Maltusning Nufus nazariyasi	
34. Buxoriy hadislaridagi iqtisodiy g'oyalar	
35. Iso Termiziyning Sunani Termiziydagi iqtisodiy g'oyalar	
3	<p>IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Learning Outcomes (Professional Competences)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qadimgi davrdan boshlab hozirgi davrgacha iqtisodiy fikr, g'oyalar, qarashlar, kontsepsiyalar va ta'limotlar mazmuni, mohiyati va ularning rivojlanishi va bugungi kundagi ahamiyati mantiqiy va tarixiy ketma-ketlikda bilishi kerak. - O'zbekiston Respublikasining erkin bozor munosabatlarga o'tish xususiyatlari, milliy bozor iqtisodiyotini shakllantirish va vujudga keltirish to'g'risidagi iqtisodiy kontsepsiyalar hamda I.A.Karimov, Sh.Mirziyoyev asarlaridagi iqtisodiy g'oyalariga e'tibor qaratishi lozim. <p>Ayniqsa, hozirgi davrda iqtisodiyot har bir inson hayotiga jo'shqinlik bilan kirib bormoqda va odamlar iqtisodiyot to'g'risida imkoni boricha ko'proq bilishga intilmoqdalar. Albatta, bugungi va ertangi kun muammolarini to'la hal etishda o'tgan asr iqtisodchilaridan barcha savollarga tayyor javob topish qiyinligi aniq, ammo o'tgan donishmandlarning fikr-mulohazalari hozirgi va kelajak to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish uchun yaxshi imkoniyat beradi.</p>
4	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and methods):</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. ma'ruzalar; 2. real vaziyatga asoslanadigan amaldagi ishlarni baholash; 3. esse, tezis va maqolalar yozish; 4. vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; 5. jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; 6. muhokamalarda qatnashish; 7. kichkina guruhlarda ishlash; 8. loyiha ishi bajarish; 9. mustaqil ishlarni baholash; 10. taqdimot tayyorlash; 11. turli darajadagi testlarni yechish;
5	<p>VI. Kreditlemani olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan</p>